



OLIMPIYA SHAHARCHASIDA O‘TKAZILGAN ILK MUSOBAQADA FUTBOLCHILARIMIZ MINTAQAVIY KUBOKNI QO‘LGA KIRITDI

Poytaxtimizdagi Olimpiya stadionida “CAFA Nations Cup” turnirining final o‘yini bo‘lib o‘tdi. Unga Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi.



Finalda O‘zbekiston va Eron milliy jamoalari bahs olib bordi. Asosiy vaqtda gol urilmagach, qo‘shimcha taymlar

belgilandi. Ular ham durang bo‘lib, o‘yin penaltilar seriyasiga qarab ketayotgan paytda O‘zbekiston g‘alaba golini kiritdi.

120-daqiqada qanotdan oshirilgan to‘pni Hojiakbar Alijonov boshi bilan raqib darvozasiga yo‘lladi.

Shu tariqa O‘zbekiston milliy terma jamoasi 2025-yilgi “CAFA Nations Cup” g‘olibi bo‘ldi.

Muzaffar futbolchilarimizga oltin medallar va kubokni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev topshirdi. Taqdirlash marosimida FIFA rahbari Janni Infantino va boshqa rasmiy shaxslar ham ishtirok etdi.

Ushbu kubok o‘yinlari jahon chempionatiga chiqqan futbolchilarimiz uchun yaxshi tayyorgarlik vazifasini o‘tadi. Yana bir quvonarli tomoni, milliy terma jamoamizning Eronga qarshi 13 yillik g‘alabasiz seriyasiga yakun yasaldi. 2023-yilda o‘tkazilgan birinchi shunday musobaqada ham O‘zbekiston finalda aynan Eronga 0:1 hisobida yutqazgan edi.

CAFA — Markaziy Osiyo futbol assotsiatsiyasidir. CAFA kubogi har ikki yilda o‘tkaziladi. Bu yilgi musobaqada, shuningdek, Afg‘oniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Hindiston, O‘mon terma jamoalari qatnashdi.

Ta’kidlash joizki, bu musobaqa yaqinda qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasida o‘tkazilgan ilk xalqaro turnir bo‘ldi va mamlakatimiz sportchilari uchun g‘alaba bilan boshlandi. Bunda ramziy ma’no va xayrli tilaklar namoyon bo‘ldi. Bunday stadionlar, sportga qaratilayotgan e’tibor yurtimizga doim g‘alabalar olib kelaversin.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTONDA FUTBOLNI RIVOJLANTIRISHDA FIFA BILAN HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) rahbari Janni Infantinoni qabul qildi.

Suhbat avvalida FIFA prezidenti O‘zbekiston yetakchisi va xalqini tarixiy voqea — milliy terma jamoamiz 2026-yilda AQSHda bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionatining final bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani bilan yana bir bor samimiy tabrikldi. Ushbu haqli yutuq mamlakatimizda olib borilayotgan samarali islohotlar, sportni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor va har tomonlama ko‘makning amaliy natijasi ekani ta’kidlandi.

O‘zbekistonning ushbu nufuzli xalqaro tuzilma bilan, eng avvalo, futbolni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish, yosh iste’dodlarni yuzaga chiqarishga ko‘maklashish, murabbiylar, hakamlar, menejerlar, sport

shifokorlari va texnik mutaxassislarni xalqaro darajada tayyorlash borasidagi sermahsul hamkorligini yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Futbolni, birinchi navbatda, yoshlar o‘rtasida ommalashtirish bo‘yicha qo‘shma dasturlarni amalga oshirishda yaqindan hamkorlik qilinayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

FIFAning texnik ko‘magida zamonaviy Milliy futbol markazi, shu jumladan, innovation yechimlarni joriy etgan holda raqamli futbol bo‘yicha situatsion markaz tashkil etildi.

O‘tgan yili mamlakatimizda futzal bo‘yicha jahon chempionati muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

O‘zbekistonda FIFAning yirik musobaqalari va tadbirlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi.

Toshkent shahrida FIFAning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy ofisini ochish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti o‘zbek futbolini rivojlantirish va xalqaro maydonda ilgari surishga qo‘shgan shaxsiy hissasi uchun FIFA rahbari Janni Infantinoga davlatimizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

O‘ZA

AQSH PREZIDENTI YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLARNI YUKSAK BAHOLADI

AMERIKA HAMDA KANADA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘ZBEKISTON VA AQSH YETAKCHILARINING TELEFON ORQALI MULOQOTI HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Tramp o‘rtasida 5-sentyabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon muloqoti Amerika va Kanadaning yetakchi ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritildi.



Jumladan, Amerikaning “Associated Press USA”, “American Business Times”, “NATO News”, “WTO News”, “IMF News Today”, “World Politics Report”, “Governmental Daily Review”, “Investor Worldreview”, “Global Politics Reporter”, “American Financial Tribune”, “The Government Digest”, “Political Updates Today”, “The America Watch”, “American Times Reporter”, “US National Times”, “America News Observer”, “International World Times”, “American Business Times” va “One World Daily Brief” nashrlari davlat rahbarlari O‘zbekiston — AQSH strategik sherikligini yanada mustahkamlash va o‘zaro

manfaatli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini atroflicha ko‘rib chiqqanlari haqida yozdi.

“Maqolalarda AQSH Prezidenti yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni yuksak baholadi va qo‘llab-quvvatlashini bildirgani urg‘ulangan.

“Muloqot chog‘ida ustuvor tarmoqlarda ishbilarmonlik bo‘yicha hamkorlik loyihalarini ilgari surish, tovar ayirboshlash hajmini sezilarli darajada oshirish masalalari ham muhokama qilindi”, deyiladi manbalarda.

AQSH OAVlari ta’kidiga ko‘ra, so‘nggi yillarda o‘zaro savdo ko‘rsatkichlarida barqaror o‘sish kuzatilmoqda. 2024-yilda tovar ayirboshlash 15 foizga o‘sdii, istiqbolli hamkorlik loyihalarini portfeli fuqaro aviatsiyasi, muhim mineral resurslar, elektrotexnika sanoati, energetika, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar, moliya sektori, innovatsiyalar, ta’lim va boshqa ko‘plab sohalarni qamrab oldi.

“Dunyo” AA
Vashington

MAMLAKATIMIZDA TA’LIMNING BARCHA BO‘G‘INLARI IZCHIL TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-sentabr kuni ta’lim tizimini isloh qilish masalalariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda ta’limning barcha bo‘g‘inlari izchil rivojlantirilmoqda. Yangi ta’lim maskanlari qurilib va zamonaviy jihozlanib, yoshlarning bilim olishiga barcha sharoit yaratilmoqda. O‘quv dasturlari yangilaniib, eng ilg‘or tajribalar joriy etilmoqda.

Lekin bu uzluksiz jarayon. Iqtidorli bolalarga ixtisoslashtirilgan bilim berish, yoshlarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish doimiy e’tiborni talab etadi. Taqdimotda shu boradagi rejalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari bayon qilindi.

Ma’lumki, ma’naviy-tarbiyaviy ishlar ta’limning bir qismi. Ammo hozirda ta’lim muassasalarida bunday tadbirlarga turlicha yondashib kelinmoqda. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularning iqtidori va iste’dodini yuzaga chiqarishda yaxlit tizim yo‘q.

Shu bois, bolalar bog‘chasidan oliy ta’limgacha qamrab olgan yagona milliy g‘oya konsepsiyasi ishlab chiqildi. U ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning namunaviy rejasini bo‘ladi. Natijada bunday ishlar tartibli va saviyali tashkil etilib, o‘quvchilar ortiqcha tadbirlarga jalb etilmaydi.

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularning iqtidori va inilishini yuzaga chiqarish bo‘yicha ham yagona vertikal tizim joriy etiladi. Shu maqsadda “Barkamol avlod” bolalar maktabi, Respublika o‘quvchi yoshlar markazi hamda “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati negizida “Kelajak” markazlari tashkil etiladi. O‘quvchilarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maktab maslahatchisi lavozimi joriy qilinadi.

So‘nggi sakkiz yilda bog‘chalarda o‘rinlar soni 2,5 milliontaga ko‘paytirilib, maktabgacha ta’lim qamrovi 78 foizga yetdi. Bu qamrovni oshirish maqsadida har yili 20 ming o‘rin ochish rejalashtirilgan.

Buning uchun yangi ko‘p qavatli uylar qurilishida ulardagi aholi soniga mutanosib maktabgacha ta’lim tashkiloti ham bo‘lishi nazarda tutiladi. Bog‘chalarda ishlayotgan o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar uchun dual ta’lim va malaka oshirish tizimi joriy etiladi.

Maktabgacha ta’lim qamrovi 80 foizdan past bo‘lgan tuman va shaharlarda xususiy sektor ishtiroki qo‘llab-quvvatlanadi. Xususan, bog‘cha va maktablarning bo‘sh maydonlarida davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti qurishga ruxsat etiladi. Tadbirkorlarga faoliyatni o‘zgartirmaslik sharti bilan yer uchastkalari bepul beriladi hamda 7 yilgacha bo‘lgan imtiyozli kredit ajratiladi.

2026-2028-yillarda respublikaning 14 ta hududida Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazini o‘z ichiga olgan “Yangi avlod” maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i tashkil etiladi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyot tarmoqlarining hozirgi va kelgusi talabidan kelib chiqib, texnika va muhandislik yo‘nalishlarini rivojlantirish vazifasini qo‘ygan edi. Shunga muvofiq, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida 14 ta hududda muhandislik maktablari tashkil etilmoqda. Ushbu maktablarga bolalar imtihon asosida saralab olinadi va Davlat byudjeti hisobidan o‘qitiladi. Ularda “Yangi O‘zbekiston” universiteti va Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab tajribasi asosida muhandislik ta’lim dasturi joriy qilinadi. O‘quv jarayoni 5 yillik dastur asosida STEM modeli bo‘yicha tashkil etiladi.

2026-yildan boshlab, har yili umumta’lim maktablari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Ilg‘or muhandislik maktabi” milliy tanlovi o‘tkaziladi.

Shuningdek, tabiiy fanlarni o‘qitishni yaxshilash maqsadida barcha hududlarda ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil qilinadi. Toshkent shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi maktab bu yo‘nalishda tayanch maktab sifatida xizmat qiladi.

Toshkent shahrida N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti filiali, “ToshTech” texnika universiteti hamda Olmaliq davlat texnika instituti ochiladi.

Yana bir yangilik o‘qituvchilikka mehr qo‘ygan yoshlarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Hozirgi kungacha bu sohada alohida davlat stipendiyasi yo‘q edi.

Shu bois, joriy o‘quv yilidan boshlab, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasi ta’sis etilmoqda. Stipendiya bakalavriatning 3-4-kurslari uchun bo‘ladi, yoshlarni o‘qish va ilmiy izlanishlarga undaydi.

Yig‘ilishda fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar taqdimot qilindi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tartiblari takomillashtiriladi. Jumladan, doktoranturaga ajratilayotgan kvotalar mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Fanlar akademiyasining respublikada istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirish, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish, ilmiy ishlanma natijalarini amaliyotga tatbiq etishdagi o‘rmi kuchaytiriladi.

Davlatimiz rahbari bildirilgan takliflarni ma’qullab, tegishli hujjatlarni imzoladi. Ulardagi vazifalar ijrosini tizimli va sifatli ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

HAR TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIKNING ISTIQBOLLARI

O‘ZBEKISTON MINTAQADA XITOIY BILAN BUNDAY YUQORI MUNOSABAT O‘RNATGAN BIRINCHI MAMLAKAT



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpingning taklifiga binoan 30-avgust – 3-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Tashrif doirasida 2-sentabr kuni Pekin shahrida O‘zbekiston Prezidenti va Xitoy Raisining rasmiy delegatsiyalar a’zolari ishtirokidagi muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi

barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davomi 3-betda

SHHT – ISHONCHLI HAMKORLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH MAYDONI

Faol va pragmatik tashqi siyosat O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Bugungi kunda O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki jahon miqyosida ham o‘zini ishonchli, ochiq va barqaror hamkor sifatida namoyon qilmoqda.



Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

SHHT bu jarayonlarda alohida o‘rin tutmoqda. Joriy yil 1-sentabr kuni Xitoyning Tyanszin shahrida SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlari yig‘ilishida global va mintaqaviy ahamiyatga ega qator masalalar muhokama qilindi. Sammitda O‘zbekiston Prezidenti nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqa kelajagi uchun muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ushbu takliflar siyosiy hamkorlikni mustahkamlash, xavfsizlikni ta‘minlash, iqtisodiy rivojlanish va madaniy yaqinlashuv yo‘lida yangi imkoniyatlar eshigini ochishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

Prezidentimiz ilgari surgan muhim tashabbuslardan biri Yadro xavfsizligi bo‘yicha deklaratsiya qabul qilish masalasi bo‘ldi. Bugungi kunda dunyoda geosiyosiy ziddiyatlar ortib borayotgan, ayrim davlatlar o‘rtasida yadroviy qurollar bilan bog‘liq xavotir kuchaygan bir paytda bu taklif juda dolzarb sanaladi. SHHTga a‘zo davlatlarning yadro xavfsizligi masalasida yagona pozitsiya bildirishi nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro maydonda ham tinchlik va ishonch muhitini mustahkamlaydi. Bu tashabbus tashkilotni “mas’uliyatli geosiyosiy kuch” sifatida ko‘rsatadi.

Ichki ishlar vazirlari kengashi faoliyatini qayta tiklash tashabbusi esa zamonaviy tahdidlar, jumladan, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm va kibernetik janglar keng yoyilayotgan sharoitida amaldagi hamkorlikni institutsional asosda kuchaytirishga qaratilgan. SHHT doirasida ichki ishlar organlarining hamkorligi nafaqat xavfsizlikni ta‘minlaydi, balki mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbarining 2030-yilgacha giyohvandlik qarshi kurash dasturini tayyorlash taklifi ham dolzarbdir. Giyohvandlik muammosi faqat bir mamlakat emas, balki butun dunyo xavfsizligi va aholi salomatligiga tahdid solmoqda. Afg‘onistonda narkotrafikning yuqori darajada bo‘lishi SHHT davlatlariga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Dasturni qabul qilish esa uzoq muddatli strategiyani shakllantirib, davlatlar o‘rtasida yagona yondashuvni ta‘minlaydi. Bu tashabbus aholi, ayniqsa, yoshlarni ushbu zahri qotildan ishonchli himoya qilish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Afg‘oniston butun mintaqaning siyosiy va xavfsizlik muhitida hal qiluvchi omil. Bu mamlakatda tinchlik va barqarorlik ta‘minlanmasa, qo‘shni davlatlarga xavf solishi muqarrar. O‘zbekiston rahbarining “SHHT — Afg‘oniston” muloqot guruhi faoliyatini faollashtirish taklifi aynan Afg‘onistondagi muammolarni birgalikda hal qilish, iqtisodiy va humanitar yordamni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Bu nafaqat SHHT davlatlari, balki butun jahon hamjamiyati uchun muhim tashabbus sifatida baholanishi mumkin.

Davlatimiz rahbari tomonidan Savdoni soddalashtirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi bitimni imzolash, Strategik materiallar bo‘yicha mintaqaviy markaz, Energetika konsorsiumi, Venchur kompaniyalar va jamg‘armalar tarmog‘i hamda Maxsus elektron investitsiya portali tashkil etish kabi muhim tashabbuslar ham ilgari

surildi. Bunda Savdoni soddalashtirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi bitimni imzolash orqali tashkilot makonida tovar va xizmatlar aylanmasini erkinlashtirish, bojxona va savdo jarayonlarini shaffof va qulay qilish orqali ichki bozor salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoni yaratiladi. Bu tashabbus SHHT davlatlari o‘rtasida savdo hajmini oshirish, kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar ochishga zamin yaratadi.

Bugungi global iqtisodiyotda energiya, qimmatbaho metallar va turli strategik xomashyolar katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Strategik materiallar bo‘yicha mintaqaviy markaz tashkil etilishi juda muhim. Markaz resurslarni samarali boshqarish, o‘zaro manfaatli taqsimot va eksport-import jarayonlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu orqali SHHT davlatlari strategik resurslardan barqaror foydalanadi.

Energetika konsorsiumi esa energetika sohasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi, SHHT makonining iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Konsorsium tashkil etilishi mamlakatlar o‘rtasida elektr energiyasi, gaz va neft resurslari taqsimotini uyq‘unlashtirish, yangi quvvatlar barpo etish va muqobil energiya manbalaridan foydalanish uchun qudratli mexanizm vazifasini bajaradi.

Sammitda Prezidentimiz transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga alohida to‘xtaldi. Bu bejiz emas. Chunki bugungi global iqtisodiy tizimda transport yo‘laklari davlatlar o‘rtasidagi savdo aylanmasini ta‘minlovchi asosiy infratuzilmasi sanaladi. SHHTga a‘zo davlatlar geografik jihatdan Yevroosyo qit‘asi markazida joylashgan. Bu hududdagi olam bozor, boy resurslar va demografik salohiyat faqatgina samarali transport aloqalari orqali to‘liq ishga solinishi mumkin. Agar logistikadagi to‘siqlar kamaysa, yitq tashish tezlashsa va transport xarajatlari qisqarsa, mintaqaning iqtisodiy qudrati sezilarli darajada oshadi.

Shimol-Janub va Sharq-G‘arb yo‘nalishlari bo‘yicha transport-tranzit yo‘laklarini rivojlantirish tashabbusi mintaqa mamlakatlarini xalqaro savdo zanjiriga yanada chuqurroq bog‘laydi. Shimol-Janub yo‘nalishi Rossiya va Markaziy Osiyo orqali Hind okeaniga chiqish imkonini bersa, Sharq-G‘arb yo‘nalishi Xitoydan Yevropagacha to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqani ta‘minlaydi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki geosiyosiy ahamiyat nuqtayi nazaridan ham juda muhim.

Sammitda qabul qilingan qarorlardan biri Toshkent shahrida SHHTga a‘zo davlatlarning xavfsizlikka tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy faoliyat yuritadigan universal markazini tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbus bo‘ldi. Bu markaz SHHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasining institutsional asoslariga tayanadi va uning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Ushbu qaromirg yana bir jihat SHHT Axborot xavfsizligi markazini tashkil etishdir. Zamonaviy dunyoda kibernetik xavfsizlik masalasi milliy chegaralardan chiqib ulgurgan. Kiberhujumlar, dezinformatsiya, feyk axborot tarqatish va raqamli tahdidlar davlatlarning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga katta xavf solmoqda. Tashkil etiladigan markaz ana shunday tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, yagona elektron himoya mexanizmlarini shakllantirish va raqamli makonda ishonchli hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Bu qaror O‘zbekiston uchun ham strategik ahamiyatga ega. Chunki markazning aynan Toshkentda joylashishi mamlakatimizning mintaqaviy xavfsizlikda o‘rni va nufuzini yanada oshiradi. O‘zbekiston SHHT doirasida nafaqat tashabbuskor, balki amaliyotchi markaz sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Sammitda davlatimiz rahbari ilgari surgan takliflar SHHTning strategik yo‘nalishlariga yangi mazmun baxsh etdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston taklif etgan g‘oyalari SHHTning xalqaro nufuzini yanada oshirib, uni ishonchli hamkorlik va barqaror taraqqiyot maydoniga aylantirishi shubhasiz.

XALQIMIZNING BAHODIR FARZANDI, SAN’ATIMIZNING FIDOYI DARG’ASI

Xalqimiz azaldan chinakam san’atni qadrlab kelgan. Zero, san’atkorlar ijodi bilan xalqning ruhiy dunyosi boyiyydi, imon-e‘tiqodi mustahkamlanadi. Shu bois, san’at ahli qadrlangan yurtida ezigulik, ma’rifat va taraqqiyot hukmron bo‘ladi. Asrlar osha yashab kelayotgan qo‘shiq va kuylarimiz, doston-u sahna asarlarimiz xalqimizning aslida kim ekani, ko‘nglidagi orzu-armonlari ramzi sifatida bugungi kunda ham qadriyat sifatida yashab kelayotir.

Poytaxtimizdagi “Turkiston” san’at saroyida O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali adabiy-ma’rifiy kecha bo‘lib o‘tdi. Tadbirda turli vazirlik va idoralar, ijodiy tashkilotlarning vakillari, ijodkor ziyolilar, san’atga mehri baland yurtdoshlarimiz ishtirok etdi.

Tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov Bahodir Yo‘ldoshevning faoliyati, ijodi, insoniy fazilatlarini xususida batafsil to‘xtalib o‘tdi.

E’tirof etilganidek, Bahodir Yo‘ldoshev ma’naviy mezonlarni g‘oyat yuqori bo‘lgan, kamchiliklar, illatlarga nihoyatda murossasiz, Vatamni, xalqini sevadigan, milliy san’atimiz ravnagini umr mazmuniga aylantirgan ijodkor edi. Bahodir Yo‘ldoshevning bevosita rejissyorligidagi spektakllar milliy teatr san’atimizning bebaho xazinasiga aylangan. Vatanimizning Mustaqillik, Navro‘z bayramlari, Xalqaro maqom va baxshichilik san’ati festivallarining musiqiy dasturini tayyorlashda alohida fidoyilik va jonbozlik ko‘rsatgan ijodkor edi.

Davlatimiz rahbari Bahodir Yo‘ldoshev ijodiga, uning shaxsiyatiga doimo katta ehtirom, alohida mehr va g‘amxo‘rlilik, hurmat bilan e’tibor qaratadi. Bu

Prezidentimizning shu yil avgust oyida qabul qilingan farmoni asosida “Diydor” teatr-studiyasi badiiy rahbari Bahodir Yo‘ldoshev “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganida ham o‘zining yaqqol ifodasini topdi.

Tantanali tadbirda O‘zbekiston xalq artisti Yodgor Sa’diyev, Afzal Rafiqov, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar Farhod Abdullayev, Munojat Teshaboyeva Bahodir Yo‘ldoshevning insoniy fazilatlarini, ijodga sadoqat bilan yondashuvi haqida batafsil so‘zladi.

— O‘nqir-cho‘ngir bo‘lsa ham, baribir, san’atkor g‘ozal hayot kechiradi. U shu hayotning o‘zidayoq ham Romeo, ham Otello, ham Richard, ham Sezar... Garchi fojiaiy bo‘lsa-da, bir qancha taqdimni yashab o‘tadi. Oddiy odamlar esa faqat bitta — o‘z hayotini yashaydi, derdi Bahodir aka, — deydi O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Farhod Abdullayev. — San’atga sadoqat bilan xizmat qilishni o‘z hayotining ma’no-mazmun deb bilgan yorqin iste’dod sohibi o‘zbek rejissyorlik san’atida o‘z ijodiy maktabini yaratib ketdi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



IQTISODIYOTNING ZAMONAVIY MODELI



Durbek AHMEDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

Bugungi ijobiy demografik vaziyat, texnologik taraqqiyot, tarmogdagi tarkibiy o‘zgarishlar, xizmat ko‘rsatish sohasi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida jamiyatni elektr energiyasi hamda boshqa turdagi toza va “yashil” energiya bilan uzluksiz ta‘minlash mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining eng muhim vazifasiga aylanmoqda.

Insoniyat kelajagi aholi sonining o‘sishi va iqtisodiy faoliyatning jadallashuvi sharoitida iqlim o‘zgarishiga salbiy ta‘sirni kamaytirish hamda cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanish yangicha yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq ekanini unutmastlik lozim.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra 2050-yilga borib, iqlim o‘zgarishining global tamoyillari va tabiiy resurslar taqchilligi tobora kuchayishi bir necha yo‘nalishda tegishli choralar ko‘rishni talab qiladi. Energetika muvozanatida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni ko‘paytirish, elektr energiyasini uzatishda yo‘qotishlarni kamaytirish, elektr energiyasini saqlash uchun yetarli quvvat yaratish, elektr transporti ulushini oshirish, energiya tejaydigan “yashil” qurilish amaliyotiga o‘tish, maishiy elektr energiyasi iste’molining ekrigan usullarini qayta ko‘rib chiqish shular jumlasidan.

McKensey kompaniyasining “2022-yil uchun global energetika istiqbollari” (Global Energy Perspective 2020) hisobotiga ko‘ra 2050-yilga borib, global energiya iste’moli 3 baravar oshishi mumkin. Yillik talab taxminan 3 foiz o‘sadi. Qazib olinadigan yoqilg‘iga asoslangan global



ishlab chiqarish quvvati tarkibini muqobil energiya manbalariga o‘zgartirish orqali nol darajali uglerod chiqindilari tizimiga o‘tish ta‘minlanadi.

Energetika mustaqilligi va xavfsizligini ta‘minlash masalasi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni hal etish, mamlakatimizning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini

bajarish va “yashil” iqtisodiy modelni shakllantirishning muhim shartidir.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz energetika sohasini isloh qilish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, 2016-yildan buyon ishlab chiqarish quvvati hajmi va tarkibida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu esa mamlakat rahbariyatining aniq natijaga yo‘naltirilgan yagona energetika siyosatini shakllantirishga doimiy va jiddiy e’tibori samarasidir.

Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra bugun O‘zbekistonda 112 ta elektr stansiyasi mavjud. Ularning 15 foizdan ortig‘i quyosh va shamol elektr stansiyalaridir. Mamlakatimizdagi ishlab chiqarish quvvatlarining amaldagi hajmi 22 ming megavatt dan oshdi. Umumiy quvvatda quyosh va shamol elektr stansiyalari ulushi kundan kunga oshib borishi kutilmoqda.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratsak, 2016-yilda 14 gigavattli quvvat faqat IES va GESga to‘g‘ri kelgan. Elektr energetikasini rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirish va muqobil energiya manbalariga o‘tish natijasida joriy yilda elektr quvvati qariyb 30 gigavattga yetkaziladi. Shundan qariyb 25 foizini quyosh va shamol elektr stansiyalari ishlab chiqaradi. Faol investitsiya muhiti va texnologik o‘zgarishlar natijasida 2016-2024-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi qariyb 40 foiz oshdi. “Yashil” energetika quvvati esa yildan yilga o‘sib bormoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizning barcha hududida yangi quvvatlarni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha 80 ga yaqin investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Natijada 54 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega 10 ming megavatt dan ortiq qo‘shimcha quvvat taqdim etildi. Quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bo‘yicha 18 ta loyihani amalga oshirish tufayli 2020-2024-yillarda umumiy o‘sishning 44 foizi miqdorida qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvati barpo etildi.

Elektr energetikasini rivojlantirish

“Xorijlik mutaxassislarning o‘rganishiga ko‘ra iste’molchilarning “yashil” qurilish obyektlariga talabi tobora ortib boryapti. Ularning fikricha, 84 foiz resident uchun “yashil” uy yaxshi yashashning muhim shartidir. Shu bilan birga, uy egalari 64 foiz yashil hududda yashash uchun qo‘proq haq to‘lashga tayyor ekanini bildirgan.

oshirildi. Shu yillarda 38 ming kilometr o‘rta kuchlanishli taqsimlash tarmoqlari modernizatsiya qilindi, 170 ta kichik stansiya quvvati oshirildi. Qariyb 12 mingta transformator punkti o‘rnatildi hamda ushbu maqsad uchun 5 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida energiya samaradorligini oshirish, energetika resurslarini tejash va ekologik yukni kamaytirish muhim ahamiyatga ega. 2020-2025-yillarda ishlab chiqarish quvvatini modernizatsiya qilish, quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, uzatish tarmoqlari va boshqa texnologik infratuzilmani yangilash natijasida 7,4 milliard kub metr tabiiy gaz tejashiga erishildi. Atmosferaga 6 million tonna karbonat angidrid chiqishining oldi olindi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda elektr energiyasi iste’moli jadal o‘sib borayotgani, jumladan, 2016-2024-yillarda 44 foiz oshgani, YIM hajmi esa o‘tgan yili rekord ko‘rsatkich — 115 milliard dollarga yetganini ta’kidlash lozim. Ayniqsa, elektr energiyasi iste’moli tarkibida sanoat va elektr transportining mamlakat umumiy elektr energiyasi iste’molidagi ulushi shiddat bilan o‘smoqda. Bu esa sanoatlashirish va “yashil” transportga izchil o‘tishning bevosita natijasidir.

Atruf-muhitni muhofaza qilish va insonning iqlim o‘zgarishiga salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun “yashil” qurilish amaliyotiga o‘tish katta ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiya qurilishning butun sikli — obyektlar dizayni, ekologik toza qurilish jarayoni, ishlatiladigan materiallarning sifati va xususiyatlari, energiya tejamkorligi va samaradorligi, foydalanish jarayonida zararli chiqindilarni minimallashtirishga ta’sir qiladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida karbonat angidrid chiqindisining qariyb 40 foizi qurilish sektori va binolarni ishlatish uchun zarur energiya ishlab chiqarish hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSHda binolarni istish va havoni mo’tadillashtirish uchun mamlakatda foydalaniladigan energiya resurslarining

21,4 million kvadrat metr turar joy va 19,1 million kvadrat metr noturar joy binosi qurilgan. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan turar joy maydoni 2020-yildagi 16 kvadrat metrdan 2024-yilda 19 kvadrat metrgacha yetgan. Turar va noturar joy obyektlari qurilishi yanada o‘shishni hisobga olgan holda “yashil” qurilish texnologiyalariga o‘tishning ahamiyati yildan yilga ortib boradi.

Turar joy, tijorat va maishiy sohalarda energiya samaradorligini ta‘minlash va energiya yo‘qotishlarini kamaytirish uchun qurilish va renovatsiyada “R-value” yuqori normativ ko‘rsatkichlariga ega issiqlik izolyatorlaridan foydalanish zarur. Bu mavjud va yangi qurilayotgan binolar hamda turar joy fondini majburiy energiya auditidan o‘tkazish va “R-value” ilg‘or normalarga jamo beradigan zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallaridan foydalanish bo‘yicha yangi standartlarga o‘tish zarurligini anglatadi.

Yuqori issiqlik uzatish qarshiligi (R-value)ga ega zamonaviy itisiklarni majburiy yo‘qotilishga o‘tish yillik issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirishni ta‘minlaydi. Buni xorij tajribasi ham tasdiqlaydi. Yevropa Ittifoqi, Kanada, AQSH va Yaponiyada anchadan buyon “R-value” bo‘yicha qat’iy normalar, majburiy energiya audit va sertifikatlash tizimlari (LEED, BREEAM, Passivhaus) qo‘llanadi. Ushbu standartlarga o‘tish istish va havoni mo’tadillashtirish uchun issiqlik yo‘qotishini 20-35 foiz kamaytirib, O‘zbekistonda yiliga taxminan 980 million kub metr gaz va 730 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejashini ta‘minlaydi. Yaqin kelajakda aholi va uy xo‘jaliklari soni ortishini hisobga olgan holda gaz va elektr energiyasi tejashini har yili oshib, keyingi 5-6 yilda umumiy budget samarasi 12 trillion so‘mdan 35 trillion so‘mgacha yetishi mumkin. Bu esa barqaror multiplikativ samarani ta‘minlaydi.

Maishiy sektor gaz va elektr energiyasining yirik iste’molchisidir. Chunkinchi, 2016-2024-yillarda aholining elektr energiyasi iste’moli 72 foiz ko‘payib, 18,6 milliard kilovatt-soatni tashkil etdi. Shu munosabat bilan energiyatejamkor maishiy joylarni izchil joriy etish, ularni nazorat qilish va boshqarish uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘ladi. Ushbu chora-tadbirlarning multiplikativ ta’siri natijasida barqaror rivojlanish ta‘minlanadi. Uglerod izi kamayadi va iqtisodiy o‘sish yanada rag‘batlantiriladi.

“A++” va undan yuqori energiya samaradorlik sinfiga ega maishiy texnikadan keng foydalanish, mamlakat miqyosida maishiy induksion elektr plitalar, elektr qozon va issiqlik nasoslaridan foydalanishga o‘tish bilan birga energiya iste’molini boshqarishni avtomatlashtirish va “aqlli” uylar konsepsiyalarini joriy etish energiya tejash uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Bunday yondashuv energiya samaradorligini oshirish bilan birga turar joy binolarning issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash va zamonaviy maishiy texnikadan foydalanishni kengaytirish orqali aholi farovonligini sezilarli darajada ta‘minlash imkonini beradi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra binolarning turli konstruksiyalari uchun “R-value” parametridan amalda foydalanishga o‘tish, qurilishda mahalliy issiqlik izolyatsiya materiallarini qo‘llash, muqobil energiya manbalari, jamoaviy elektr energiyasi ishlab chiqarish va to‘plash qurilmalari, gelioqurilmalar, issiqlik pechlaridan omamviy foydalanish, energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan maishiy jihozlariga o‘tish dasturiga kutilayotgan investitsiyalar hajmi 10-15 milliard dollarni, qazib olinadigan yoqilg‘i uchun xarajalar va energiya resurslari sarfini kamaytirish hisobiga o‘zini qoplash muddati 7-10 yilni tashkil etadi. Barqaror energiya ta’minoti va energiya xavfsizligini ta‘minlash orqali unumdorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sish hisobiga qo‘shimcha iqtisodiy samaraga erishiladi.

Umuman olganda, mamlakat energetika sohasini isloh qilish sur’ati, zamonaviy va ishonchli ishlab chiqarish quvvatlari tizimini yaratishga investitsiyalar jalb etilishi, energetika infratuzilmasini yangilash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar sezilarli natija bermoqda va energetika mustaqilligini ta‘minlash poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida muqobil energiya manbalaridan keng foydalanishga e’tibor qaratilishi va energiya samaradorligini oshirishga kompleks yondashuv O‘zbekistonning “yashil” taraqqiyot prinsiplariga sodiqligini tasdiqlaydi. Energetika sohasidagi davlat siyosati aholining turmush darajasini oshirish, yangi O‘zbekistonda barpo etish kafolatlarni ta‘minlaydi.

Boshlanishi 1-betda

Davlatlarimiz rahbarlari oʻtgan yillarda ikki tomonlama munosabatlar rivojida katta yutuqlarga erishilganini taʼkidladi. Barcha darajalardagi aloqalar surʼati oshib borayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, muhim



masalalar yuzasidan tomonlar bir-birini qoʻllab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xitoyning Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yuy Szyun mazkur tashrifning ahamiyati va uning doirasida imzolangan muhim

Hozir mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlarni har tomonlama strategik sheriklikning yangi davri deb atasak boʻladi.

hujjat va bitimlar xususida muxbirimizga quyidagilarni soʻzlab berdi:

— Mazkur tashrifni haqiqatan tarixiy ahamiyatga ega deb atash mumkin. Eng muhimi, tashrif davomida erishilgan natijalar ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga

koʻtarish, xalqaro hamkorligimizni demokratiya yoʻnalishida yanada samaraliroq bosqichlarga olib chiqishga imkon yaratadi.

Oʻzbekiston — Xitoy munosabatlari doimo yuqori darajadagi oʻzaro tushunish va qoʻllab-quvvatlash bilan ajralib turgan. Tashrif doirasida boʻlib oʻtgan uchrashuvda yetakchilarimiz bu borada yana bir bor kelishib oldi. Tomonlar bundan keyin ham xalqaro va mintaqaviy masalalarda bir-birini qoʻllab-quvvatlaydi.

Tomonlar oʻz taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bir-biriga har jihatdan yordam beradi.

Davlatlarimiz rahbarlarining muntazam muloqot qilishi, oʻzaro tashrif va uchrashuvlari natijasida xalqlarimiz oʻrtasida turli

sohalardagi aloqalar mutlaqo yangi bosqichga chiqdi.

Oʻtgan yillar davomida ikki tomonlama munosabatlar rivojida katta yutuqlarga erishildi. Barcha darajalardagi aloqalar surʼati oshib borayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, muhim masalalar yuzasidan tomonlar bir-birini qoʻllab-quvvatlayotgani alohida ahamiyatga ega.

Savdo-iqtisodiy, texnologik va moliyaviy-investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Oʻtgan yili tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard dollardan oshdi, yil boshidan esa yana 23 foiz oʻsdi. Sanoat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini oʻzaro yetkazib berish orqali bu koʻrsatkichni 20 milliard dollarga olib chiqish maqsad qilingan.

Investitsiya loyihalari portfeli 60 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. 2024-yilda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ortiq 64 ta loyiha ishga tushirilgan.

Natijada bugungi kunda hamkorligimiz deyarli barcha sohalarni qamrab olgan va yetakchilarimiz ushbu hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun aniq rejani belgilab berdi. Tashrif doirasida yangi Oʻzbekistonni barpo

etish yoʻlida hamkorlikni mustahkamlashga oid hujjatlar almashildi. Shuningdek, madaniyat markazlari tashkil etish boʻyicha bitim va tibbiy xizmat koʻrsatish sohasida hamkorlik toʻgʻrisida kelishuv imzolandi.

Tomonlar iqtisodiyot, bozor nazorati, raqamli iqtisodiyot va kosmik tadqiqotlar sohasidagi hamkorlikka oid boshqa hujjatlarni ham imzoladi. Bu esa munosabatlarimiz eng qulay bosqichda, tarixdagi eng yaxshi davrida ekanidan dalolat beradi.

Hozir Xitoy Oʻzbekistondan yuqori sifatli mahsulotlarni import qilmoqda. Masalan, yurtingiz giloslari hozir Xitoy bozorida eng talabgir mahsulotlardan sanaladi. Shuningdek, quruq mevalar ham. Xususan, mosh har yili katta hajmda Xitoyga eksport qilinmoqda.

Sirdaryo viloyatida kompaniyamiz ikki-uch yildan buyon uzluksiz meva va paxta yetishtirish ustida faoliyat yuritmoqda. Shu bois, bu borada ijobiy tajriba va amaliyot toʻplanmoqda. Bu esa kelgusida qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida hamkorligimizni yanada kengaytirish uchun mustahkam asos boʻladi.

Bundan tashqari, Xitoydan sanoat mahsulotlari ham olib kelinmoqda. Shu bois, nazarimda, yetakchilarimizning oqilona rahbarligi, idoralarimizning samarali saʼy-harakatlari va eng asosiysi, kompaniyalarimizning faol ishtiroki tufayli mamlakatlarimiz oʻrtasidagi savdo hajmi tobora ortib bormoqda, amaliy hamkorlik mustahkamlanmoqda.

Yetakchilarimiz juda yaqin aloqalarni qoʻllab-quvvatlaydi. Har yili hech boʻlmaganda bir-ikki marta uchrashib, samimiy muloqot qiladi va aloqalarni yanada faollashtirish uchun yangi yoʻnalishlar belgilab beriladi.

Mintaqalarimiz oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlari ham samarali ishlamoqda. Hamkorligimiz oʻzaro manfaatdorlik va tenglik tamoyiliga asoslanadi. Fikrimcha, faqat ana shu tamoyil asosida hamkorlik barqaror boʻlishi mumkin.

Hozir mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlarni har tomonlama strategik sheriklikning yangi davri deb atasak boʻladi.

Ochigʻini aytganda, bugungi kunda Oʻzbekiston mintaqada Xitoy bilan bunday yuqori munosabat oʻrnatgan birinchi davlatdir.

Bu esa Xitoy diplomatiyasi uchun ham, Oʻzbekiston diplomatiyasi uchun ham munosabatlarimizning oʻziga xosligini koʻrsatadi. Oʻz navbatida, doimo bir-birini tushunish, qoʻllab-quvvatlash va ikki mamlakatning umumiy kelajagini birgalikda barpo etish uchun izchil saʼy-harakatlarni amalga oshirishni anglatadi.



Qahramon SARIYEV,
Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari boʻyicha qoʻmita raisi

Insonga berilgan eng buyuk neʼmat hayot boʻlsa, bashariyat hamisha intilib yashagan eng ulugʻ maqsad, shubhasiz, tinchlik-totuvlikdir. Bir-birimizga doim osoyishtalik, xotirjamlik, sogʻliq-omonlik tilashimizning boisi ham shunda.

Oʻzbekiston azaldan bagʻrikenglik, hamjihatlik va ahil-inoqlik qoʻrgʻoni boʻlgan. Yeri, suvi, toʻy-maʼrakasi bir boʻlgan turli millat va elat vakillari asrlar osha hamjihat, birdam yashab kelgan. “Bagʻrikeng Oʻzbekiston”, “Bagʻrikeng oʻzbek xalqi” kabi iboralar bejiz paydo boʻlmagan.

Koʻp millatli va koʻp dinli davlatda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlik barqarorlik va taraqqiyotga mustahkam zamin hozirlavchi, uning istiqbolini belgilab beruvchi muhim omil.

Bugun Oʻzbekiston juda tez rivojlanib, islohotlar oʻz mevasini berayotgani, el-yurt farovonligi tobora ortayotganining asosiy sabablaridan biri ham yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari yagona va ahil oila boʻlib yashab kelayotganidadir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Oʻzbekiston Respublikasi oʻz hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tili, urf-odati va anʼanalari hurmat qilinishini taʼminlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi mustahkamlab qoʻyilgan.

Prezidentimiz yurtimiz zaminida qadimdan davom etib kelayotgan etnik xilmaxillikni noyob ijtimoiy hodisa sifatida baholab, millatlar va elatlar, konfessiyalar oʻrtasidagi totuvlikni asrasi, uni yanada mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbarining donishmandlik, insonparvarlik va adolatparvarlik tamoyillari asosida yuritayotgan siyosati natijasida mamlakatimizda umummilliy birdamlik yanada chuqur ildiz otmogʻda. Barchamiz uchun aziz

va elatlarning madaniyati, tili, urf-odatlari, qadriyat va anʼanalarni saqlash hamda yosh avlodga yetkazish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Bu yoʻnalishdagi ishlarni tizimli bajarishda milliy madaniy markazlarning oʻrni juda muhim. Hozir mamlakatimizda 157 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Ular davlatimiz tomonidan muntazam qoʻllab-quvvatlanmoqda. 2021-yildan boshlab ushbu markazlar faoliyat yuritishi, turli tadbirlarni oʻtkazishi uchun davlat subsidiyasi ajratilmoqda.

Oxirgi toʻrt yilda respublika darajasidagi

doirasida “Oʻzbekiston — yagona Vatan!” shiori ostida milliy madaniy markazlar pavilyonining ochilish marosimi boʻlib oʻtdi.

Unda Oliy Majlis Senati aʼzolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralar, keng jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Xitoy kabi davlatlardan mehmonlar, shuningdek, 30 ta davlat va xalqaro tashkilotning Oʻzbekistondagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari va xodimlari ishtirok etdi.

Tadbir ishtirokchilari ushbu pavilyonning barpo etilishi noyob hodisa ekani,

birdamlikni taʼminlashga alohida xizmat koʻrsatayotgan 50 ga yaqin davlat va jamoat tashkilotlari, milliy madaniy markazlar va diniy konfessiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari boʻlgan yurtdoshlarimiz “Xalqlar doʻstligi” koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi.

Albatta, ushbu yurtdoshlarimiz kelgusi faoliyatida ham millatlararo totuvlik va bagʻrikenglik elchisi boʻlib, yurtimizdagi birdamlik va tinchlik muhitini mustahkamlash yoʻlida yanada fidokorona mehnat qilishiga ishonamiz.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



14 ta milliy madaniy markazga qariyb 5,5 milliard soʻm, 2025-yilda Qoraqalpoqʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, uman va shaharlarda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlarga 6,6 milliard soʻm ajratilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, deyarli barcha milliy madaniy markazlar uchun hududlarda tashkil etilgan “Doʻstlik uylari”dan joy ajratilgan va ular bu joylardan mutlaqo bepul foydalanmoqda.

Shuningdek, Toshkent shahrida joylashgan Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari boʻyicha qoʻmita binosida ham respublika hamda Toshkent shahri darajasidagi 27 ta milliy madaniy markaz emir-erkin faoliyat yuritishi uchun barcha sharoit mavjud.

Ayniqsa, qoʻmita joylashgan bino atrofida millatlararo doʻstlikning oʻziga xos ramzi boʻlgan Milliy madaniy markazlar pavilyoni, u yerda 22 millatga xos milliy uylar barpo etilgan milliy madaniy markazlarga Oʻzbekiston Prezidentining katta sovgʻasi boʻldi. Ushbu pavilyonni hech ikkilanmay, millatlararo doʻstlik shaharchasi deyish mumkin.

2021-yildan buyon har yili 30-iyul mamlakatimizda Xalqlar doʻstligi kuni sifatida keng nishonlanayapti. Ushbu sana munosabati bilan shu yil 25-31-iyul kunlari mamlakatimiz boʻylab “Doʻstlik” festivali oʻtkazildi. Uning

Oʻzbekistonda yashab kelayotgan millatlar va elatlarning oʻz madaniyati, urf-odati va anʼanalarni saqlab qolishi hamda rivojlanishini uchun yana bir ulkan imkoniyat eshiklari ochilganini taʼkidladi. Shuningdek, bu pavilyon mamlakatimizda millatlararo totuvlik va umummilliy hamjihatlik borasidagi ulkan islohotlarni oʻzida toʻla ifodalashi, oʻzaro madaniy almashinuv maydoni vazifasini bajarishi qayd etildi.

Jumladan, BMT Taraqqiyot dasturining Oʻzbekistondagi doimiy vakili Akiko Fuji Oʻzbekistonda turli xalqlar va madaniyatlarga hurmat-eʼtiborni yuksak qadrlashi, milliy madaniy markazlar pavilyoni ochilishi haqiqiy insoniy va ilgʻor gʻoya ekanini aytdi.

Halol mehnati, vatanparvarligi bilan Vatanimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishga munosib hissa qoʻshib kelayotgan har xil millatga mansub yurtdoshlarimiz juda koʻp. Ular davlat va jamoat tashkilotlarida turli masʼul lavozimlarda samarali mehnat qilmoqda, yurtimizda millatlararo totuvlik, bagʻrikenglik muhitini mustahkamlashga munosib hissa qoʻshmoqda. Har yili Xalqlar doʻstligi kuni munosabati bilan ana shunday yurtdoshlarimizdan bir guruhini “Xalqlar doʻstligi” koʻkrak nishoni bilan taqdirlash eʼzgi anʼana aylangan.

Bu yil ham mamlakatimizda umummilliy totuvlik, turli millatlar oʻrtasida doʻstlik,

Prezidentimizning qatʼiy siyosiy irodasi tufayli xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan yaqindan ishlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bunday loyihalaridan biri “Uz Global Think” forumidir. Ushbu loyiha tadbirkorlik platformalarini yaratish, jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ekologik barqarorlik, sifati taʼlim kabi masalalarda oʻzaro fikr-mulohaza almashish maqsadida ekspertlik va ilmiy doiralr vakillari boʻlgan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqoti koʻrinishida amalga oshiriladi.

Shuningdek, akademik doiradagi shaxslar, ularning hayot yoʻli, muvaffaqiyati, yangi Oʻzbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladigan tavsiyalaridan iborat maqolalar joylab boriladigan “Who is Who” loyihasi tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot dasturining “Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish” dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning yangi Oʻzbekiston iqtisodiy qatordiga qoʻshayotgan hissasini yanada oshirish maqsadida innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferi amalga oshirilmoqda.

Xorijiy oliy oʻquv yurtlarini bitirib, oʻsha davlatda yashab, ishlayotgan vatandoshlarni bir-lashtiruvchi, qoʻllab-quvvatlovchi “Oʻzbekistonlik bitiruvchilar” dasturi ham ishlab chiqilmoqda.

Prezidentimiz oldimizga qoʻygan ushbu vazifalarning barchasi xorijdagi vatandoshlar ishtirokida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

Insonning eng muhim erkinliklaridan biri, shubhasiz, vijdon erkinligidir. 2021-yilda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi din erkinligini institutsional jihatdan mustahkamlash yoʻlidagi navbatdagi muhim qadam boʻldi. Ushbu qonun bagʻrikenglik tamoyillarini, barcha konfessiyalar faoliyati uchun barqaror huquqiy asosni yanada mustahkamladi.

Hozir Oʻzbekistonda 2374 ta diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Shundan 2173 tasi islomiy va 199 tasi noislomiy diniy tashkilotdir. Soʻnnggi sakkiz yilda respublika boʻyicha 130 ta diniy tashkilot, jumladan, 3 ta oliy va 1 ta oʻrta maxsus islom bilim yurti, 105 ta masjid hamda 25 ta turli konfessiyaga taalluqli noislomiy diniy tashkilot davlat roʻyxatidan oʻtkazildi. Yangi masjid, xristian cherkovi va ibodatxonalari qurildi, mavjudlari taʼmirlandi. Bu esa barcha konfessiyalariga hurmat koʻrsatishning amaldagi tasdigʻidir.

Shu bilan birga, joriy yil 25-fevralda tegishli qonun bilan Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi qabul qilangani jamiyat hayotida katta voqea boʻldi deb aytishga yetarli asoslarimiz bor.

Joriy yil 10-13-sentabr kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida “Deklaratsiyalar muloqoti” II xalqaro forumi oʻtkaziladi.

Birinchi “Deklaratsiyalar muloqoti” forumi 2022-yil mayda Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida boʻlib oʻtgan edi. Besh kun davom etgan forumda qator xorijiy davlatlardan yetuk olimlar, shuningdek, sohaga oid mahalliy davlat idoralari, diniy tashkilotlar vakillari qatnashgan. Oʻsha anjuman yakuni boʻyicha qabul qilingan Buxoro deklaratsiyasi keyinchalik BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasida rasmiy hujjat sifatida tan olingan. Bu esa turli millat vakillari, turfa din hamda eʼtiqodga mansub insonlardan iborat bagʻrikeng jamiyatni shakllantirish boʻyicha Oʻzbekiston modeli naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

“Deklaratsiyalar muloqoti” forumi muntazam oʻtkazilishi, unda xorijiy hamda xalqaro tashkilotlardan nufuzli ishtirokchilar qatnashishi Oʻzbekistonning eʼtiqod erkinligi va konfessiyalararo totuvlikni taʼminlashga qaratilgan siyosati dunyo boʻylab yuksak eʼtirof etilayotganidan dalolat. Bundan tashqari, II forum mamlakatimizning dinlararo muloqotni yuqori qadriyat darajasiga koʻtarish maqsadida ochlik tamoyiliga, diniy bagʻrikenglik va tolerantlik muhitini rivojlantirishga sodiqligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ushbu anjuman xalqlar va turli konfessiyalar vakillari oʻzaro tinch-totuv yashashini taʼminlash boʻyicha ilgʻor tajribalarni almashish uchun oʻziga xos maydon vazifasini oʻtaydi deb hisoblaymiz.

Soʻzimizni Prezidentimizning 30-iyul — Xalqlar doʻstligi kuni munosabati bilan bayram tabrigidagi quyidagi soʻzlar bilan yakunlamochimiz:

“Dunyoning turli mintaqalarida milliy va diniy asosda turli nizolar davom etayotgan hozirgi oʻta tahlikali sharoitda yagona Oʻzbekiston gʻoyasi asosida eng katta boyligimiz — yurtimizdagi osoyishtalik va barqarorlik, oʻzaro hurmat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bilim-maʼrifat, kasb-hunarlar egasi etib tarbiyalash, inkiyozivlik tamoyillarini chuqurlashtirish borasidagi ishlarni mustahkamlash ham izchil davom ettiramiz.

Oʻzbekiston fuqarosi ekanidan faxrlanadigan barcha millat va konfessiyalar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarini Konstitutsiya va qonunlarimiz talablari asosida hamma joyda qatʼiy himoya qilish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”.

SOHA VAKILLARI FAOLIYATIDA MUHIM BOSQICH BOSHLANDI

Xorijga sayohatga borgan bir qarindoshimiz yaqinlarni jamlab, olib kelgan sovg'a-salomini birma-bir ulashdi. Oilamizga atalganlari orasidan 100 foiz paxtadan tiklangan erkaklar ko'ylagini ushlab ko'rayotib, tovar yorlig'iga ko'zim tushdi — "Made in Uzbekistan".

E qoyil! O'zimizning mahsulotimiz tabarruk bo'lib xorijdan kelibdi, tadbirkorlarning otasiga rahmat, dedik. Ko'ylakning sifati chet elnikidan qolishmaydi. Agar o'sha yozuv bo'lmasa, chindan ham o'zimizda ishlab chiqarilganiga ishonmaysiz.

Ha, bugun milliy to'qimachilik sanoati sezilarli darajada rivojlandi. Tadbirkorlarning shashti baland, bu boradagi eksport salohiyati yildan yilga oshib boryapti. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari joriy yil 13-avgust kuni to'qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va xaziralarni ishga solish masalalari bo'yicha o'tkazgan videoselektorda to'qimachilik mamlakatimiz iqtisodiyotining 3 foizini, sanoatning 14 foizini yaratayotgan yirik tarmoq ekanini e'tirof etdi. Ayni yo'nalishda 500 mingdan ortiq odam ish bilan band ekani, so'nggi besh yilda 3,5 milliard dollarlik 396 ta korxona

soha vakillari faoliyatining yangi bosqichiga bel bog'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Barqaror raqobat bo'ladi

15 davlatning yirik brendlari bilan hamkorlikda ishlayotgan "Chust tekstil" korxonasi joriy yilning shu paytiga qadar 20 million dollarlik mahsulot eksport qildi. Bu o'tgan yilning shu davriga qaraganda yuqori natija.



ishga tushirilgani va ishlab chiqarish qiymati 10 milliard dollarga yetgani faxr uyg'otadi.

Davlatimiz rahbari 200 dan ortiq to'qimachilik korxonasi vakillari bilan uchrashuvda sohaga oid 7 trillion so'mlik tashabbuslarni e'lon qildi. Tadbirkorlar bilan shu yil 20-avgustdagi muloqotda esa tez kunlarda to'qimachilikda "ishonchli eksportchi" dasturi boshlanib, eksportoldi moliyalash tizimi yo'lga qo'yilishi va buning uchun 200 million dollar yo'naltirilishi ma'lum qilindi. Bundan ruhlangan

Prezidentimiz 2021-yili mazkur korxonaga tashrif chog'ida angar usulidagi qurilishni yuqori baholab, yanada ko'p ish o'rnlari ochish vazifasini bergandi. Ayni paytda korxonada 1800 ga yaqin ishchi-xodim ishlayapti. Uzoqdan qatnovchilar uchun yotoqxona, farzandlari uchun bolalar bog'chasi qurilgan. Ishchi kuchini yo'qotmaslik maqsadida yangi farzandli bo'lgan onalar uchun ham qulaylik yaratilgan — chillasi chiqqan chaqaloqni parvarishlaydigan tarbiyachilar bor. Maktab yoshidagi bolalar



Bugunning gapi

uchun esa maktabga tayyorlov kurslari ochilgan. Barchasi fabrika hisobidan.

— Korxonamiz bir qancha xalqaro sertifikatga ega. Ularni qo'lga kiritishda davlatimizning xizmati katta bo'ldi. Chunki sertifikatlar arzon turmaydi. Prezidentimiz shuni o'ylagan holda biz, tadbirkorlarga bu borada katta yordam beryapti. Yana 300 dan ziyod tadbirkorga ayni shu masalada ko'maklashiladigan bo'ldi, — deydi korxona rahbari Jamshid Ismatullayev.

— 20 yillik tajribamda faoliyatimiz bilan bog'liq juda ko'p inqirozni ko'rganman. Chunki to'qimachilik sohasida jiddiy muammolar bor. Korxona o'z imkoniyati bilan ularni yengib o'tishi qiyin. Shu ma'noda, Prezidentimizning sohaga oid 13-avgustdagi yig'ilishi qizg'in kayfiyatda o'tdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz rahbarining 200 dan ziyod tadbirkorni eshitib, fikrini o'rgangani bejiz emas.

Tadbirkorning aytishicha, aholining kambag'al qatlamini ish bilan ta'minlagani uchun xorijdagi tekstil korxonalariga alohida e'tibor qaratiladi va yordam beriladi. Shu bois, rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan mahalliy tovarlar narxida tafovut paydo bo'ladi, natijada o'zbek ishbilamnonlari yutqazadi. Naviga qarab, paxtaning dunyo bozorida 10-20 foiz qimmatligi ham asosiy sabablardan. Zero, mahalliy tekstil korxonalari asosan paxtaga e'tibor qaratgan. Aksariyat kompaniyalar viskoza, polieste, poliefir tolasidan mahsulot tayyorlaydi. Mahalliy tadbirkorlar esa ularni import qilishi, boj to'lashi hisobiga mahsulotning tannarxi yanada

qimmatlashib ketardi. Bundan tashqari, bir qancha shartlari ham bor edi. Ularni aksariyat korxonalar bajara olmayotgani tufayli tayyor mahsulot narxi 10-15 foiz oshib ketayotgan edi. Davlatimiz rahbari shu kabi bir qancha muammolari hal qilib berdi. Chet eldan import qilinadigan kimyoviy tozalarga qo'yilgan import boji 2028-yilgacha olib tashlanishi tadbirkorlarni benihoya quvontirdi. Zero, endi Jamshid Ismatullayev singari tadbirkorlar bemalol matoni o'zimizda qayta ishlab, mijozlariga ham paxta, ham sun'iy matodan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taklif qila oladi.

Imtiyozlarning aksariyati shartsiz yoki shartli tarzda berilyapti. Bu orqali bir qancha korxonalar ushbu imtiyozlardan foydalana oladi va narx ancha pasayadi, raqobat barqaror bo'ladi.

— Mana shu qo'llab-quvvatlash tufayli o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31 foiz yuqori natijaga erishdik. Yangi imtiyozlar esa samaradorlikni yanada oshiradi, — deydi tadbirkor. — Keyingi paytda soha rivojiga oid ko'plab yig'ilishlar o'tkazilyapti Xususan, Savdo-sanoat palatasi tomonidan 20 ga yaqin tadbir o'tkazildi. Muammolar tingiladi. Biz ham o'z o'mida takliflar berdik. Korxonamiz barqaror ishlayapti, eksport imkoniyatimiz bor. Onlayn savdo tizimini ham rivojlantirganmiz. "Bizga faoliyatida muammo bo'lgan korxonalardan tayyor mahsulotni olib, qayta sotishga imkon berilsa, ayni muddao bo'lardi", dedik. Shu kungacha boshqa korxonadan tayyor mahsulot olib sotsak, imtiyozlardan mahrum bo'lishimiz mumkin edi. Endi esa bemalol o'zimiz ishlab

chiqarmaydigan mahsulotlarni boshqalardan sotib olib, eksport qilsak bo'ladi.

"Khantex Group" tajribasi

Andijon viloyatining ishsizlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan Qo'rg'ontep tumani iqtisodiyotida "Khantex Group" to'qimachilik korxonasining alohida o'rni bor. Zero, korxonadagi 15 bo'limda 4000 dan ziyod ish o'rni mavjud. O'rtaicha oylik maosh uch million so'mdan ortiq. Prezidentimiz raisligida o'tgan yig'ilish natijalari mazkur korxonada ham atroflicha muhokama qilindi. Xususan, korxonalar qarzdorligini yengillashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, soliq imtiyozlari va kam foizli kreditlar ajratish orqali ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, klasterlarni moliyaviy sog'lomlashtirish va ichki xaziralarni samarali ishga solish, eksport hajmini oshirish, tayyor mahsulot ulushini ko'paytirish, sifat standartlariga qat'iy rioya etish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlash kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratildi.

— Ushbu chora-tadbirlar to'qimachilik tarmog'i uchun strategik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Soha vakili sifatida biz ham mazkur talab va vazifalarni klasterimizda amalga oshirish uchun qat'iy e'tibor qaratiladi.

ahamiyatga ega. Korxonalarimizda ishlab chiqarishning har bir bosqichi — ip-kalavadan mahsulot tayyorlashgacha bo'lgan jarayonning xalqaro standartlarga mosligini nazorat qilish tizimi ishlab turibdi, — deydi "Khantex Group" to'qimachilik korxonasi direktorining sifat nazorati bo'yicha o'rinbosari Feruza Sodiqova. — Aylanma mablag'ni kam foizli kreditlar orqali to'ldirish, soliq imtiyozlari berish va moliyaviy sog'lomlashtirish dasturlari bizning klasterda ham yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Natijada ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va eng muhimi, sifat nazoratini yanada yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Aslida, bugungi imkoniyatlar O'zbekiston to'qimachiligida yangi bosqichni boshlab beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yaqinda paxta yig'im-terimi boshlanadi. Bu yilgi hosilni o'z vaqtida terib olish uchun fermerlarga paxtaning har tonnasi uchun 1 million so'mdan subsidiya berilishi paxta dalasiga ega klasterlar uchun ayni muddao bo'ldi. Endi korxonalar o'z mablag'i hisobidan paxta yetishtirsa yoki xarid qilsa, xomashyo qiymatining 10 foizi qoplab beriladi. Korxonalarimizni arzon xomashyo bilan ta'minlash maqsadida 2028-yil 1-yanvargacha aralash mato va gazlama bo'xjona bo'ijidan ozod etilgani ham tadbirkor uchun juda katta amaliy yordamdird. Bir nechta bo'yoq korxonasi birgalikda suv tozalash inshootini qurisa, xarajatining bir qismi Savdoni rivojlantirish kompaniyasidan qoplab berilishi ham tekstil sohasi tarixida bo'lmagan yangilik. Yuqori sifat, samarali boshqaruv va davlatning qo'llab-quvvatlovi uyg'unlashganda tarmog'ning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Zero, "Khantex Group" tajribasi ham shuni ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, bugungi islohotlar va belgilab berilgan yo'nalishlar nafaqat klasterimiz, balki butun to'qimachilik kelajagi uchun mustahkam zamin yaratadi. Sohaning etkasiga ishonchimiz ortgani bois, xalqaro standartlarga asoslangan faoliyat orqali AQSH bozoriga kirishga tayyorlanaymiz. "Khantex Group"ning AQSH bozoriga kirishi davlatimiz byudjetiga ham ulkan foyda keltiradi. Chunki eksport hajmi ko'payishi orqali mamlakatimizga qo'shimcha valyuta tushumi oshadi, yangi ish o'rnlari ochiladi, to'qimachilik tarmog'ining nufuzi ortib boradi. Klasterning asosiy maqsadlaridan biri nufuzli GOTS sertifikatini qo'lga kiritish orqali dunyo bozori e'tiborini korxonaga qaratishdir. "Khantex Group"ning mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tajribasini shu yo'nalishdagi boshqa korxonalarga ham namuna qilish mumkin.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Surxondaryoda transport va logistika tizimining samarali ishlashi nafaqat viloyat, balki butun respublika uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, so'nggi yillarda viloyatda yo'l infratuzilmasini yaxshilash, eski ko'priklarni ta'mirlash va davr talablariga javob beradigan yo'llar barpo etish berasida keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Hozir viloyatda 16 ming 47 kilometr avtomobil yo'li bo'lib, shundan 2720 kilometri umumiy foydalanishdagi, qolgan 13 ming 327 kilometri mahalliy hokimliklar balansidagi mintaqaviy yo'llardir.

Yo'l ta'mirlash yoki yangidan qurish faqat avtomobillar uchun emas. Bu ishlar ortida odamlar hayotini yanada yengillashtirish, kundalik turmushini yaxshilash kabi muhim maqsadlar yotadi.

— 2017-2024-yillarda 6 ming kilometr avtomobil yo'li, 89 ta ko'priklar va yo'l o'tkazgichda jami 2,8 trillion so'mlik qurilish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari bajarilgan. 2025-yilning yanvar-iyul oylari davomida 334,4 kilometr yo'l qurilgan va ta'mirlangan. Bundan tashqari, piyodalar yo'laklari va yo'l o'tkazgichlari barpo etildi, — deydi Surxondaryo viloyati Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i Bahodir Hatamov.

Ayniqsa, chekka qishloqlarda rekonstruksiya qilingan yo'l mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda. Masalan, Sherobod granit koniga olib boruvchi va Kamptirpa qishlog'i hududidan o'tgan yo'l ta'mirlab edi. Hatto Shalqonsoy ustida ko'priklar yo'qligi bois, mahalliy aholi kezi kelganda suv kechib o'tishga majbur bo'lardi. Bugun esa hududdagi sel yo'lida ko'priklar bunyod etilib, foydalanishga topshirildi. Buning uchun qariyb 5 milliard so'm yo'naltirildi.

— Ko'priklar qurilishida unga tushadigan yuk bosimi, o'tkazuvchanlik quvvati, yaroqlilik muddati puxta hisoblab chiqiladi. Ko'priklar qurilishiga eng sifati po'lat, beton qo'llanilishining boisi ham shu. Ana shunday murakkab talablarga qaramay, joriy yilda viloyatdagi aviariya holatidagi ko'priklarni ta'mirlanib, avtomobillar o'tishi uchun to'liq yaroqli holatga keltirildi, — deydi bosh muhandis Faxriddin Haydarov.



Taraqqiyot manzillari

YO'L INFRATUZILMASINI YAXSHILASH inson manfaati va xavfsizligiga xizmat qiladi

Boysun tumanida ham aholi uchun qulay va xavfsiz transport infratuzilmasini yaratish maqsadiga keng ko'lami qurilish va ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Joriy yilga qadar tumandagi Xo'jabulg'on mahallasi hududidan o'tgan yo'l burama va ko'priklar ta'mirlalab ahvolda edi. Mazkur hududda 824,5 kvadrat metrga teng temir-beton devor qurildi. Shuningdek, 23 pogonometr to'rtburchak temir-beton quvur o'rnatildi. Yo'l to'g'ri shaklga keltirilib, asfalt yotqizildi. Yo'l chiziqlari chizildi va ogohlantiruvchi belgilar o'rnatildi. Bu esa hududda sel xatarini kamaytiradi, suv oqimini to'g'ri yo'naltirish va yo'llarni muhofazalashga xizmat qiladi. Muhimi, yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlaydi.

Sohadan ozmi-ko'pmi xabardor kishi ko'priklar qurish va ta'mirlash anchagina mashaaqqatli, murakkab ekanini yaxshi biladi. Denov tumani Qiziljar mahallasi hududidan o'tgan sel yo'lidagi ko'priklar ham keyingi yillarda ta'mirlalab bo'lib qolganadi. Jami 2 milliard 232 million 900 ming so'm evaziga ko'priklar piyoda o'tishi uchun ham moslashtirilib qaytadan qurildi. Katta yo'lga chiqish va mahallaga kirish yo'llari asfaltlandi.

Viloyatdagi 4K-588 avtomobil yo'li Denov tumanini uzoq Sina hamda Vaxshivor qishlog'i

bilan bog'laydi. Ushbu yo'lining Sina mahallasi hududidan o'tuvchi 19,4 kilometr qismidagi yirik ko'priklar sel tufayli shikastlangan edi. Uning qayta qurilib, istiqolimizning 34 yilligi arafasida foydalanishga topshirilgani ham tog'li hududlar infratuzilmasi yaxshilanishiga xizmat qildi. Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan mazkur qurilish ishlari denovlik yo'lovchilar tomonidan qisqa muddatda amalga oshirildi.

— Qishlog'imiz aholisi juda xursand. Katta mablag' evaziga qurilgan bu zamonaviy ko'priklar nafaqat aholi uchun qulaylik yaratish, balki xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, — deydi qishloq nuroniylaridan biri Jamoliddin Umarov.

Denov tumani markazida amalga oshirilayotgan loyiha ham aholining turmush darajasini yanada yaxshilash, infratuzilmani takomillashtirish va hududning transport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan. Loyihaga ko'ra umumiy uzunligi 13 kilometr bo'lgan asosiy yo'l asfalt-beton qilib, yo'l bo'ylab zamonaviy yoritish chiroqlari o'rnatildi. Bu tunda ham transport harakati xavfsizligini ta'minlaydi. Loyiha doirasida hududda yashil belbog'lar yaratish, piyodalar va velosiped

yo'laklarini barpo etish ishlari ham davom etmoqda.

Viloyat markazidagi halqa yo'lining Termiz temir yo'l stansiyasi va Manguzar mahallasini bog'lovchi qismida ham yirik bunyodkorlik ishlari bajarildi. Avvalgi tor ko'cha kengaytirilib, asfalt yotqizildi. Suv qochirish tizimlari, yoritish chiroqlari, yo'l belgilari o'rnatilib, yo'l chiziqlarini chizish to'liq yakunlandi. Mazkur obyektning yonidan o'tuvchi kanal ustida 3 ta ko'priklar qurildi.

Viloyatda yana bir loyiha amalga oshirilishi natijasida Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohini Sulton Saodat maqbaralar majmuasi bilan bog'laydigan yo'l 12 kilometr qisqardi. Uzunligi 3 kilometr bo'lgan mazkur yangi obyekt viloyatda turizmni rivojlantirishda ham muhim o'rinni tutadi.

Avtomobil yo'lini foydalanishga yaroqli holatda saqlashning muhim jihatlardan biri unga tushadigan yuk va hajm parametrlari talabiga rioya etishdir. Bir so'z bilan aytganda, agar har bir kvadrat metrga me'yordan ortiq bosim tushsa, yo'l cho'kadi, buziladi.

— Belgilangan me'yordan ko'p yuk ortgan holda harakatlanish avtomobil yo'li buzilishiga ob-havo va boshqa tabiiy omillar kabi ta'sir

qiladi. Shu bois, Surxondaryo viloyatidagi mavjud yo'llar buzilishining oldini olish maqsadida Muzrabot tumanida yuk avtomobillari og'irligini nazorat qiluvchi ko'chma tarozi o'rnatilgan. Bu tarozi transport vositalariga ortiqcha yuk ortilganini aniqlagan taqdirda belgilangan tartibda vazn barqarorlashtiriladi, — deydi muhandis Elmurod Mirzaev.

Istiqlolimizning 34 yilligiga munosib tufsa sifatida Surxondaryoda amalga oshirilgan yo'lovchilik, transport va kommunikatsiya loyihalari nafaqat hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga, balki yangi ish o'rnlari yaratish, xalqimiz farovonligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Ilgari yo'llarda nosozlik paydo bo'lsa, uni bartaraf etish uchun uzoq vaqt va ko'p ovoragarchilik talab etilardi. Hozir esa Surxondaryoda bu masalaga butunlay boshqacha yondashilmoqda. Ya'ni viloyatning 13 ta hududida yo'l bo'limlari tashkil etildi.

Termiz tumani "Yo'llardan foydalanish korxonasi" davlat muassasasi jami 234 kilometr yo'lga xizmat ko'rsatadi. Shundan 42 kilometri Termiz shahri hududiga to'g'ri keladi. Viloyatdagi 329-yo'l bo'limi uchun yangi bino qurilgani mazkur tashkilot xodimlarining

mehnat sharoitini yaxshilab, ish samaradorligini oshiradi.

—Yangi binolar yengil yig'ma konstruksiyali, tez quriladigan innovatsion mahsulotlardan foydalangan holda qisqa muddatda barpo etildi. Ular barcha texnik talablarga, shuningdek, issiq va sovuq iqlim sharoitiga mos keladi. Har bir yo'l bo'limida ishchilar uchun dam olish xonalari, zarur shart-sharoitlar yaratildi. Quyosh panellari orqali uzluksiz elektr ta'minoti yo'lga qo'yilgan, — deydi Termiz tumani "Yo'llardan foydalanish korxonasi" DM direktori Tojiddin Tillayev. — Ayniqsa, kuz-qish mavsumida muzlamalarga qarshi kurashish, yo'llardagi nosozlikni o'z vaqtida bartaraf etish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi.

Yo'l qurilishi ko'p qatlamli va komponentli, katta mablag' talab etadigan jarayon. Qiziriq tumanida xalqaro va mahalliy ahamiyatga ega salkam 1400 kilometr yo'lini yuk, yo'lovchi tashish uchun ravon holatga keltirish maqsadida yil boshidan buyon qator loyihalar amalga oshirildi. Joriy yilning olti oyida avtomobil yo'llarini ta'mirlash uchun qariyb 20 milliard so'mga yaqin mablag' sarflandi. Shu bilan birga, yo'lovchilar faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida Qiziriq tumanidagi 338-yo'l bo'limining yangi binosi ham foydalanishga topshirilib, ular uchun munosib sharoit yaratildi.

Surxondaryo viloyatida yo'lovchilik va logistika infratuzilmasini yaxshilash borasidagi bunday keng ko'lami ishlar hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, aholi farovonligi va hayot sifatiga ham bevosita ijobiy ta'sir qiladi. Bandixon va Qumqo'rg'on tumanlarida ham yo'l bo'limlari uchun foydalanishga topshirilgan yangi binolar ishchi-xodimlar uchun qulay mehnat sharoitini yaratish barobarida yo'l infratuzilmasini yanada takomillashtirishga xizmat qilishni boshladi.

Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan Jarqo'rg'on, Sho'chi, Denov, Sariosiyov, Uzun, Oltinson, Boysun, Sherobod tumanlarida ham yo'l bo'limlari uchun yangi binolar qurilib, foydalanishga topshirildi. Chegara va tog'li hududlarda ham qurilgan bunday binolar yo'lovchilar uchun qishda issiq, yozda esa salqin va qulay sharoitda faoliyat yuritish hamda dam olish imkoniyatini yaratdi. Bunyod etilayotgan ko'priklar, ta'mirlanayotgan yo'llar, tashkil etilayotgan zamonaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmalari chekka qishloqlar bilan markazlar o'rtasidagi masofani yaqinlashtirmoqda. Bu kabi ishlar ortidagi asosiy maqsad esa inson manfaati va uning xavfsizligini ta'minlash hamda qulay turmush sharoitini yaratishdir.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

YANGI O‘ZBEKISTON — KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI TA’MINLANGAN DAVLAT



Abdumannob RAHIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi sudyasi

Mamlakatimiz bo‘ylab mustaqillik bayrami shukuh davom etmoqda. Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz bu yil “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” ezgu g‘oyasi asosida nishonlandi. Milliy istiqlolimizning shonli o‘ttiz to‘rt yillik bayrami xalqimiz va davlatimiz hayotiga tobora chuqur singib borayotgan yangi O‘zbekiston fenomeni dunyoning ilg‘or mamlakatlari tomonidan e’tirof etilayotgan bir vaqtda nishonlangani ahamiyatli.

Yangi O‘zbekiston orzusi bilan boshlangan ulkan islohotlarimiz tufayli mamlakatimizga yangi zamon ruhi kirib keldi. Eng muhimi, odamlar buni o‘z hayotida his etib boshladi.

Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari muqaddimasida bunday so‘zlar bor: “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas. Mazkur ibora paydo bo‘lganidan buyon ming yillar o‘tdi. Bu butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda, yangilanishda degandir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi”.



Yangi O‘zbekistonda barpo etish g‘oyasi shunchaki xohish-istak bo‘lmagan, balki davlatchilimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasi, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, jonajon vatanimizni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tiborga ega, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylantirish istagi, ta’bir joiz bo‘lsa, xalqimizning asriy orzu-intilishidir.

2017-yilga qadar Konstitutsiyaviy sud, Bosh qonunimizga muvofiq, to‘rtta vakolatga ega edi. Sud islohotlari natijasida unga yana qo‘shimcha beshta vakolat berildi.

To‘g‘ri, Konstitutsiyaviy sud faoliyati, uning huquqiy asoslari keyingi vaqtlarda juda keng yoritilmoqda. Bu Konstitutsiyaviy sud faoliyati haqida aholini kengroq tanishtirish va vakolatlarini tushuntirish zarurati bilan bevosita bog‘liq. Chunki ko‘p hollarda fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga o‘z konstitutsiyaviy

huquq va erkinliklarini himoyalashni so‘rab murojaat qiladi. Biroq Konstitutsiyaviy sud ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini bevosita emas, balki bilvosita himoya qiladigan sud hokimiyatidir. Aholi buni har doim ham to‘liq bilmaydi.

Aytmoqchimizki, fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lgan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

Aynan shuning uchun ham Konstitutsiyaviy sud faoliyati va uning huquqiy asoslarini keng targ‘ib qilish, avvalo, fuqarolarning huquqiy



madaniyatini yuksaltirish, sud-huquq sohasidagi islohotlarni targ‘ibot-tashviqot qilishda ahamiyati katta.

Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan 2022-yil 20-iyun kuni bo‘lib o‘tgan uchrashuvda “Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekani, to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanishi, insonning asosiy huquq va erkinliklari ajralmas va daxlsiz bo‘lib, har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekani qayd etilmoqda. Bularning barchasi Asosiy qonunning himoyachisi bo‘lgan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mazkur sud boshqa sudlardan farqli o‘laroq, faqat Konstitutsiyaga bo‘ysunadi hamda Asosiy qonunning ustunligi prinsipini ta’minlaydi”, deb alohida ta’kidlagan edi.

Biz quyida keyingi yillarda yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan sud islohotlari natijasida Konstitutsiyaviy sudga berilgan muhim vakolatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash vakolati.

Dunyo amaliyotida “oldingi” va “keyingi” konstitutsiyaviy nazorat instituti mavjud. Konstitutsiyaviy kengashlar yoki konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitalari normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilinishidan oldin, aniqrog‘i, kuchga kirmasdan turib, ularning konstitutsiyaviyligi haqida xulosa beradi. Buni “oldingi” konstitutsiyaviy nazorat institutiga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kirgandan keyin agar tegishli subyektlar tomonidan ularning konstitutsiyaviyligini belgilangan tartibda tekshirishni so‘rab Konstitutsiyaviy sudga murojaat etilsa, normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ish ko‘rilishi “keyingi” konstitutsiyaviy nazorat institutiga misol bo‘ladi.

Demak, Konstitutsiyaviy sudlar konstitutsiyaviy nazoratni “keyingi” shaklda amalga oshirsa, konstitutsiyaviy kengashlar yoki konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitalari konstitutsiyaviy nazoratni “oldingi” shaklda amalga oshirishga da’vat qilingan.

Nima uchun Konstitutsiyaviy sudga konstitutsiyaviy nazoratni “oldingi” shaklda amalga oshirish vakolati berildi. Buning obyektiv sabablari bor deb o‘ylaymiz.



Qonunchilik palatasi 2023-yil 10-martda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi qarorning (ilovasi bilan) Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida Konstitutsiyaviy sudga murojaat qildi.

Konstitutsiyaviy sud 2023-yil 13-martda bo‘lib o‘tgan majlisida ishni ochiq sud majlisida ko‘rib chiqib, Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi qarori va ushbu qaror ilovasi loyihasini referendumga qo‘yish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq deb topgan. Bu Konstitutsiyaviy sudning referendumga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish haqidagi birinchi qarori edi.

Yana bir vakolat — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqish.

Albatta, inson huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat hisoblanadigan demokratik davlat, ochiq va adolati jamiyatni barpo etishda odil sudlovni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Odil sudlovni ta’minlashda esa, avvalo, Konstitutsiya va unga muvofiq qabul qilingan adolati qonunlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas.

Demak, muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatni ko‘rib chiqish vakolatining Konstitutsiyaviy sudga berilishi, eng avvalo, Konstitutsiyaga zid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar normalarini o‘z vaqtida aniqlash, shuning barobarida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, sudyalarning faqat qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishi va adolati hukm chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish

amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili Oliy Majlis palatalariga va O‘zbekiston Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylarning holati to‘g‘risida axborot taqdim etish vakolatining Konstitutsiyaviy sudga berilishi Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish va ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi. Nima uchun mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylarning holati to‘g‘risida axborot aynan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etiladi?

Buning siyosiy ahamiyati bor. Chunki O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi, O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy xalqlarining kafallidir.

Ahamiyatli jihati shundaki, har ikkisi ham xalqdan to‘g‘ridan to‘g‘ri vakolat oladi va faqat xalq oldida hisobdor bo‘ladi. Ilg‘or demokratik mamlakatlarda ham shunday. Davlat hokimiyati tizimida boshqa bunday oliy vakillik organi ham, oliy mansabdor shaxs ham yo‘q.

Demak, bunday amaliyot, eng avvalo, mamlakatimiz qonun chiqaruvchi hokimiyati bo‘lgan Oliy Majlis va davlat rahbarining mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylarning holati to‘g‘risida xabarador bo‘lishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, Konstitutsiya ustuvorligi va uning normalarini amaliyotga tatbiq etishga monelik qilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni bartaraf etishga ularni qabul qilish huquqiga ega organ yoki mansabdor shaxslarga tavsiyalar beriladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha keyingi yillarda amalga oshirilgan yangilanishlar yangi O‘zbekistondagi islohotlar tom ma’nodda ortga qaytmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Davlatimiz rahbarining quyidagi so‘zlari bilan maqolamizga xulosa qilmoqchimiz: “Oradan yillar, asrlar o‘tadi, lekin g‘oyat murakkab sharoitda bunday ulkan islohotlarni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shgan insonlarni kelgusi avlodlar hech qachon unutmaydi.

Ana shunday buyuk baxt va sharaf barchamizga yor bo‘lsin!”.

Bahodir TO‘RAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamlakatimizning tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega davlatlardan biri, shubhasiz, Xitoydir. Bu jihat davlatimiz rahbarining 2025-yil 31-avgust — 3-sentabr kunlari SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “SHHT plus” formatidagi sammiti doirasidagi uchrashuv hamda muloqotlarida yaqqol isbotini topdi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida madaniy aloqalardan strategik hamkorlik masalalarigacha muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Toshkent shahrida “Lu Ban ustaxonasi”ni ochish loyihasi ham shunday istiqbolli tashabbuslardan.

XXR Raisi Si Zinpin 2013-yili logistika va axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlashga mo‘ljallangan “Lu Ban ustaxonalari”ni dunyo bo‘ylab ochish tashabbusini ilgari surgan edi. Hozir bunday ustaxonalar Yevropa, Osiyo va Afrikaning 20 ga yaqin, xususan, Buyuk Britaniya, Portugaliya, Hindiston, Pokiston, Misr, Janubiy Afrika kabi mamlakatlarida ochilgan. Markaziy Osiyoda

esa Tojikiston va Qozog‘istonda tashkil etilgan.

Ayni paytda ushbu tashabbus Toshkent davlat transport universitetida ham amalga oshirilmoqda. Loyihaning birinchi bosqichida “Lu Ban ustaxonasi”ning AT ilmiy-amaliy laboratoriyasi uchun 304 ming dollarlik 171 ta zamonaviy laboratoriya jihozi hamda dasturiy ta’minot xarid qilindi.

Bundan tashqari, 99 ming dollarlik intellektual logistika hamda sun‘iy intellekt o‘quv platformalari taqdim qilindi va o‘quv jarayoniga joriy etildi. Shuningdek, Markaziy Osiyoda yagona EPIP markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu markaz kasb-hunar ta’limida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish, yosh avlod uchun innovatsion loyihalarni amalga oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bilan birga jahon andozalari asosida resurslar, standartlar

Tashabbus



“LU BAN USTAXONASI”

Undan nimani o‘rganish mumkin?

ishlab chiqish, ta’lim sifatini monitoring qilish hamda baholash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, akademik almashinuv dasturlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Laboratoriya axborot texnologiyalari va dasturiy injiniring bo‘yicha tahsil olayotgan 1956 talabani AT hamda robototexnika, transchegaraviy elektron kommersiya, sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalari shakllantirilmoqda.

Loyihaning ikkinchi bosqichida “Lu Ban ustaxonasi”ning logistika bo‘yicha ilmiy-amaliy laboratoriyasi ham ochilishi rejalashtirilgan. Buning uchun 1,2 million dollarlik laboratoriya jihozlari xarid qilingan. Yengil konstruksiyali bino qurilishi tugallangach, ular joriy yil yakuniga qadar o‘rnatiladi.

Logistika yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan 1849 talabani “yashil” logistika va raqamlashtirish, omborxona logistika jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Bundan tashqari, “Lu Ban ustaxonasi”dan samarali foydalanish hamda Xitoy OTMlarining ilg‘or tajribasini keng joriy

etish maqsadida Toshkent davlat transport universitetida Janubi-g‘arbiy Szyaotun va Changan universitetlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston — Xitoy qo‘shma fakulteti ochildi. Unda transport, logistika, qurilish va injiniring yo‘nalishlari bo‘yicha 2025/2026-o‘quv yilidan qo‘shma ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu dastur asosida Shensi provinsiyasi tomonidan universitetga umumiy qiymati 1,8 million AQSH dollariga teng ta’lim granti ajratildi.

Qolaversa, Guangdong telekommunikatsiya kolleji bilan birga avtotransport muhandisligi, texnik xizmat va vodorod texnologiyalariga ixtisoslashgan BYD, Toyota, Chery kabi yirik kompaniyalar ko‘magida yangi markaz tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu O‘zbekistonning oliy texnik ta’lim tizimida xalqaro ko‘lamdagi yirik transformatsiyaning boshlanishi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

“Lu Ban ustaxonasi”ni ochish loyihasi doirasida 15 talaba Xitoyga o‘qishga yuborildi. Ular ta’limni muvaffaqiyatli tamomladi. Umuman, ayni paytda respublikamizning 16 ta oliygohida 2500 talaba dasturiy injiniring va

sun‘iy intellekt, 22 ta oliygohida 3000 yigit-qiz transport va logistika yo‘nalishida tahsil olayotir.

Bugun dunyo siyosatshunoslari O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarini kuzatar ekan, ikki mamlakat tarixdagi eng yaxshi davrni boshdan kechirmoqda deya e’tirof etyapti. Ushbu aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda “Lu Ban ustaxonasi”da AT, transport va logistika bo‘yicha ilmiy tadqiqot loyihalarni ishlab chiqish va tijoriylashtirish, ilmiy-innovatsion ekotizimni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Xitoyning yetakchi ishlab chiqarish korxonalari — “China Energy International Group Central Asia Co”, “China Railway Tunnel Group Co”, “China road and bridge corporation”, “Trans-Asia Gas Pipeline” bilan hamkorlikda texnopark ochilishi rejalashtirilaypti. “Lu Ban ustaxonasi” loyihasi doirasida magistratura talabalari va professor-o‘qituvchilarni muntazam Xitoyga stajirovkaga yuborish, O‘zbekistonning 5 ta oliy va 5 ta professional ta’lim muassasasida turli yo‘nalishlar bo‘yicha bunday ustaxonalarni tashkil etish kabi tashabbuslar ko‘rib chiqilmoqda.

Munosabatlarning bugungi yuqori bosqichi ikki davlatning strategik hamkorligini yanada mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi izchil rivojlanish nafaqat mamlakatlar manfaatiga, balki butun mintaqaning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

